

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY – TURKISTON JADIDCHILIGINING  
SIYOSIY VA MADANIYAT ARBOBI

*Mamadiyorov Ulug'bek Dilshod o'g'li*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Samarqand tamadduni kafedrasi 2-kurs magistrant*

*Tel.: +99891 318-27-44*

*E-mail: [mamadiyorovulugbek082@gmail.com](mailto:mamadiyorovulugbek082@gmail.com)*

**Annotatsiya:** XIX asr oxiri va XX asrlar Turkiston hududida jadidchilik harakati shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrlardagi xonliklar, ayniqsa yirik davlat arboblari tarixining o'rganilishi, ularning shaxsi ochiqlanishi bugungi kun taraqqiyoti uchun muhim omildir. Ushbu maqolada yirik siyosatchi, bunyodkorlik, madaniyat va ilm-fan homiysi Mahmudxo'ja Behbudi faoliyati haqida muhokama qilinadi. Uning Buxoro amirligi davrida siyosatda, madaniyatdagi o'rni va Samarqandda amalga oshirgan keng bunyodkorlik ishlariga to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Mahmudxo'ja Behbudi, Ismoilbek Gaspirinskiy, Ahmad Yassaviy, Hoji Muin, "Oyna" jurnali, jadidlar, ma'rifatparvarlik, iqtisodiy va siyosiy tazyiqlar.

**Аннотация:** Конец XIX-XX веков – важный этап становления джадидистского движения в Туркестане. Изучение истории ханов, особенно великих государственных деятелей своего времени, и раскрытие их личностей является важным фактором сегодняшнего развития. В данной статье рассматривается деятельность Махмудходжи Бехбуди, крупного политика, покровителя творчества, культуры и науки. Будут обсуждаться его место в политике и культуре в период Бухарского эмирата, обширная творческая деятельность, которую он проводил в Самарканде.

**Ключевые слова:** Махмудходжа Бехбуди, Исаимбек Гаспиринский, Ахмед Ясави, Хаджи Муин, журнал «Ойна», современники, просвещение, экономическое и политическое давление.

**Abstract:** The end of the 19<sup>th</sup>-20<sup>th</sup> centuries is an important stage in the formation of the Jadidist movement in Turkestan. Studying the history of the khans, especially the great statesmen of their time, and revealing their personalities is an important factor in today's development. This article examines the activities of Mahmudhodji Behbudi, a major politician, patron of creativity, culture and science. His place in politics and culture during the period of the Bukhara Emirate, and the extensive creative activity that he carried out in Samarkand will be discussed.

**Key words:** Mahmudhoja Behbudi, Ismailbek Gaspirinsky, Ahmed Yasawi, Hadji Muin, Oyna magazine, contemporaries, education, economic and political pressure.

## KIRISH

So‘nngi yillarda tarix faniga bo‘lgan e’tibor, bu soha vakillarining yanada kengroq ilmiy faoliyat olib borishga undamoqda. Shu bilan birgalikda, Prezidentimizning ilk kunlardanoq milliy meros, ma’naviyat, adabiyot, san’at, ilm-fan va ta’limga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ularni zamon ruhiga moslab davlat siyosati darajasiga ko’tarish borasidagi yuritayotgan say-harakatlari yirik olimlarning, yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini qo’llab-quvvatlashda o‘z aksini topmoqda desak xato bo‘lmaydi. Xalqimizga yurtimizda yashab o’tgan tarixiy shaxslar, ularning vatan taraqqiyoti, mustahkamligi, ilm-fan va madaniyat sohalariga qo’shgan hissasi haqida to‘liqroq va yanada aniq bo‘lgan ma’lumotlarni berish bugungi kun tarixchilarinig asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Bunda tarixchilar o‘tmishda yashab o’tgan, yirik siyosat arboblariga urg‘u berishga harakat qilishadi.

## ASOSIY QISM

O‘tmishi uzoq asrlarga borib taqaladigan tariximizda bunday shaxslar, sarkardalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ulardan biri – Samarqanddek muqaddas yurtda yashab, o‘zbek davlatchiligiga salmoqli hissa qo’shgan, nomi yeti iqlimga mashhur siyosatchi madaniyat va yetuk fan arbobi Mahmo‘dxo‘ja Behbudiyyidir. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko’tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxo‘ja Behbudiya ta’kidlaganidek, “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibridoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”.<sup>1</sup>

Mahmudxo‘ja Behbudiya 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Ahmad Yassaviy avlodidan bo‘lib, imom-xatiblik bilan shug‘ullangan. Ona tomondan katta bobosi Niyozxo‘ja urganchdan bo‘lib, Buxoro amiri Shohmurod davrida (1785-1800-y.) Samarqand hududiga kelib qolgan.

Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog‘ida o‘sib voyaga yetdi. Arab tili grammatikasi bo‘yicha ilmni kichik tog‘asi Mulla Odildan

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo’limiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston. 1999. B. 385.

o‘rgandi. Buxoro madrasalarida tahsil olib yurgan paytlarida dastlab onasi (1893-y.), so‘ng otasi (1894-y.) vafot etgach, moddiy qiyinchiliklar sabab o‘qishni nihoyasiga yetkaza olmadi. Samarqandga qaytib, Muhammad Siddiq qozixonasida mirzalik qila boshladi. Tez orada qozilikdan mufti darajasiga ko‘tarildi. 1899-1900-yillarda Mahmudxo‘ja Behbudiya Haj ziyoratiga otlanadi. Sakkiz oylik sayohati davrida ozodlik uchun kurash yo‘llarini izladi. Jahonda bo‘layotgan voqeа-hodisalar, jumladan, milliy ozodlik harakatlari va ularning sabablari, mohiyatini millat manfaati nuqtai nazaridan tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazadi. Sharqning Yevropa davlatlari mustamlakasi ostida bo‘lgan boshqa mamlakatlari ahvoli haqida ma’lumotlarni to‘plab, ularning hurriyat yo‘lidagi harakatlarini o‘rgandi.<sup>2</sup>

Behbudiyshunos olimlarning risola va maqolalaridagi adib hayotiga oid qariyb barcha ma’lumotlar Hoji Muinning ustozи haqidagi maqolalaridan bilib olamiz. Atoqli dramaturg va jurnalist Hoji Muin (1883-1942) Behbudiyning sodiq shogirdlari va safdoshlaridan biri bo‘lib, uning “Mehnatkashlar tovushi” va “Zarafshon” gazetalari hamda “Uchqun” jurnalida chop etilgan maqolalari behbudiyshunoslар uchun eng ishonchli va mo’tabar manba hisoblanadi. Shuning uchun ham quyida Behbudiyning nasl-nasabi bilan Hoji Muin bergen ma’lumot orqali tanishishni ayni muddao, deb bilamiz. “Mahmudxo‘ja bin Behbudxo‘ja bin Solihxo‘ja bin Niyozzo‘ja, - deb yozadi Hoji Muin, - Behbudiyning katta bobolari. Nasab jihatidan Xo‘ja Ahmad Yassaviyga borib taqaladi”. Bu so‘zlarda tilga olingan Solihxo‘ja bilan Niyozzo‘ja Behbudiyning bobolari bo‘lib, Hoji Muin ularning kelib chiqishini Ahmad Yassaviyga qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langanini alohida ta’kidlaydiki, uning bu ma’lumotni Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zidan eshitganligi shubha uyg‘otmaydi.<sup>3</sup>

Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Rossiya jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Ismoilbek Gaspirinskiyning ta’siri katta bo‘lgan. U 1892 yilda Turkistonagi maktablarni isloh qilish, «usuli savtiya»ni joriy etish haqidagi taklifi bilan Turkiston general-gubernator N.O. Rozenbaxga murojaat etadi. Javobga erisha olmagach, 1893 yilda Toshkentga keladi, Samarqand va Buxoro shaharlarida bo‘lib, mahalliy xalqlar bilan gaplashib, dastlabki yangi usuldagи maktablarni ochadi. Behbudiy ustozи Gaspirinskiy bilan bo‘lgan uchrashuvini juda maroq bilan xotirlaydi. Behbudiy o‘zbek va tojik tillarida chiqargan juda ko‘p darslik va qo‘llanmalarda Gaspirinskiy qarashlariga tayanib ish ko‘radi.<sup>4</sup> Xususan, Gaspirinskiyning 1898 yilda nashirdan chiqqan «Rahbari muallimlik yoki muallimlarga yo‘ldosh» kitobiga ergashadi. “«Usuli savtiya» mакtablarining Rusiyadagi bosh muassisi Ismoilbek Gaspirinskiy hazratlaridir. Birinchi yangi usul alifboning murattib va noshiri yana

<sup>2</sup> “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 19-yanvar, 12-son

<sup>3</sup> Hoji Muin. Tanlangan asarlar. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi N.Namozova. - Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – B. 19.

<sup>4</sup> “Guliston” jjurnali, 1995 –yil, 2- son.

Ismoilbek Gaspirinskiy hazratlaridir», - deb yozadi Behbudiy 1914 yilda.<sup>5</sup> Behbudiy Gaspirinskiyning har jihatdan o‘ziga xos ustoz deb bildi. U ustozining aql-u hayratini, millat yo‘lidagi fidoiyligini juda yuksak e’tirof etadi. Uning vafoti munosabati bilan yozgan maqolasida «Russiya musulmonlari ichida bunday bir zot kelgan yo‘qdur», - deb ta’kidlab o‘tganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston hududida til masalasini ham ko‘tarishga harakat qilgan. Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning “O‘rta sheva”sini ilgari suradi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1914-1915 yillarda Samarqandda Behbudiy tomonidan nashr qilingan “Oyna” jurnalini ko‘rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o‘z o‘quvchilari bilan hamfikr va hammaslak ekanligini bildirish va ko‘rsatish deb baholaydi.<sup>6</sup> Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy “Oyna” jurnalini chiqarmasidan ancha oldin, 1909 yili “Tarjimon” gazetasida yo‘llagan maqolasida ko‘targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tilning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e’tibor qaratmoqchi bo‘ldi va ikkala tilning maktabda tahsil olishda kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi.<sup>7</sup>

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning siyosiy faoliyatda o‘z taklif va fikrlari bilan aralashib turgan. Behbudiy Gasprinskiy taklif etgan yo‘nalishdan biroz farqli “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasini ishlab chiqdi va uni muhokama qilish uchun davlat Dumasidagi musulmon fraktsiyasiga yo‘lladi. Ushbu loyiha bir necha yil oldin Gasprinskiy tomonidan Istanbulga olib ketilgan arxivdan topildi.<sup>8</sup> Behbudiy loyihani Dumaga kiritishdan oldin Gasprinskiyning maslahatini olish maqsadida unga yuborgan ko‘rinadi. Ushbu loyiha Davlat Dumasiga yuborilgan yoki yuborilmaganligi noma’lum. Behbudiyning siyosatga doir nazariy qarashlari uning “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiylari va namunai jug‘rofiya” darsligida, “Duma va Turkiston musulmonlari”, “Xayr ul-umuri avsatuh”, “Muhtaram Samarqandiyarlarga xolisona arz” va shu kabi maqolalarida o‘z ifodasini topgan. Xususan, “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiylari va namunai jug‘rofiya” darsligida Behbudiy dunyoda mavjud bo‘lgan davlat boshqaruvi tizimi haqida mufassal ma’lumot beradi.<sup>9</sup>

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mahmudxo‘ja Behbudiy millat sha‘nini himoya qilish naqadar muhim ish ekanini chuqr his etadi va bu borada ko‘plab ijodiy ilmiy maqolalarida yozadi. Ayniqsa, XX asrning 20-yillariga kelib, xalqimizning rasman “O‘zbek” deb atalishida buyuk jadid bobomiz Behbudiyning munosib hissasi bor.

<sup>5</sup> Istiqlol qahramonlari “Mahmudxo‘ja Behbudiy” T. 2009 y. 8 bet.

<sup>6</sup> Baldauf, Ingeborg. XX asr o‘zbek... –B.40.

<sup>7</sup> Mahmudxo‘ja bin Behbudo‘ja. Turkistonda maktab lisoni // Tarjimon, 1909, № 14, 21.

<sup>8</sup> Hablemetoğlu, Necip / Kocaoğlu, Timur. Behbudi‘nin Türkistan Medeni Muhtariyeti Layhası. –Kocaoğlu, Timur (ed.). The Reform Movements and Revolutions in Turkistan (1900-1924). SOTA, Haarlem, 2001. –P.436-466.

<sup>9</sup> Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiylari. –Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi B.Qosimov) 3-nashri. –Toshkent: Ma’naviyat, 1999. –B.243-245.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning chop etilgan maqolalari taraqqiyiarvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan va hozirgi kunda alloma qoldirgan rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy ijodi xalqimizning boy merosiga aynalgan. Maxmudxo‘ja Behbudiyy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi sifatidagi qarashlari Gasprinskiy fikrlari bilan hamohang bo‘lganligini yana bir dalili sifatida uning sotsializmga bo‘lgan munosabatida ko‘rishimiz mumkin. Mahmudxo‘ja Behbudiyy siyosiy faoliyati haqida boshqa jadid vakillari ham ko’lab fikrlarni bildirishga harakat qilishmoqda va uning o’sha davr hayotiga qanchalik mos ekanligini turli mulohazalarida oydinlashtirishgan. Hozirgi vaqtda ko‘plab dunyo olimlari Mahmudxo‘ja Behbudiyy ilmiy faoliyati siyosiy va madaniy hayotda naqadar muhim ekanligini kelajak avlodga tushuntirishmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “Guliston” jurnali, 1995 –yil, 2- son.
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 19-yanvar, 12-son
3. Baldauf, Ingeborg. XX asr o‘zbek... – B .40.
4. Behbudiyy, Mahmudxo‘ja. Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. – Mahmudxo‘ja Behbudiyy. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi B.Qosimov) 3-nashri. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – B. 243-245.
5. Hablemetoğlu, Necip / Kocaoğlu, Timur. Behbudi’nin Türkistan Medeni Muhtariyeti Layihası. – Kocaoğlu, Timur (ed.). The Reform Movements and Revolutions in Turkistan (1900-1924). SOTA, Haarlem, 2001. – P. 436-466.
6. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi N.Namozova. - Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – B. 19.
7. Istiqlol qahramonlari “Mahmudxo‘ja Behbudiyy” T. 2009 y. 8 bet.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: O’zbekiston. 1999. – B. 385.
9. Mahmudxo‘ja bin Behbudxo‘ja. Turkistonda maktab lisoni // Tarjimon, 1909, № 14, 21.